
SO'X TUMANIDAGI MAKTABLARDA "BILIMLAR KUNI" KENG NISHONLANDI



So'x tumanidagi maktablarda "Bilimlar kuni" keng nishonlandi

Bugun So'x tumanida "Yangi hayot uchun Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida yurtimiz Mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan hamda yangi o'quv yili munosabati bilan barcha o'quv dargohlarda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Tadbirlarda tuman hokimi, hokim o'rinbosarlari, sektor rahbarlari va biriktirilgan vakillar ishtirok etdilar.

1-sektor hududidagi 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida qatnashgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev barcha maktab pedagogik jamoasi va o'quvchilarni Mustaqillik bayrami va "Bilimlar kuni" bilan samimiy tabrikladi. Bu yil 1-sinfga kelgan barcha o'quvchilarga Prezident sovg'alari taqdim etildi.

Tuman hokimi va tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri G. Usmonova bilan o'quvchilarga "Mustaqillik darsi"ni o'tishdi.

1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ham "Birinchi qo'ng'iroq" tadbiri ko'tarinkilik bilan tashkil etildi. Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi o'rinbosari Ilhomjon Abdumajidov ham barcha talaba yoshlarni bayram bilan tabriklab, So'x tumani birinchi hokimi, mehnat faxriysi Bahodirjon Obidjonov bilan yuqori sinf o'quvchilariga "Mustaqillik darsi" o'tib berdilar.

Joriy o'quv yilida So'x tumanida maktab ostonasiga ilk bor 1 649 nafar jajji o'g'il-qizlar qadam qo'ymoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-04 15:48:10